

УДК. 339.5.012.42(575.152)

SAVDO XIZMATLARINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY USLUBIY YONDOSHUVLARI

Maxmatqulov G'olibjon Xolmuminovich

QarMII mustaqil izlanuvchisi

gmaxmatqulov11@mail.ru

ANNOTATSIYA

Savdo xizmatlari ko'rsatish mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga, YaIM hajmining ortishiga, aholi bandlik, daromad ko'rsatkichlarining ortishiga hamda bu orqali turmush sharoitlarining yaxshilanishiga katta ta'sir ko'rsatuvchi asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Hozirgi global iqtisodiy holatda savdo tizimini rivojlantirishning yangicha yondoshuvlarini aniqlash, innovatsion rivojlantirish mexanizmlarini faollashtirish dolzarb bo'lib qolmoqda. Maqolada savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirish tamoyillari tasnifi keltirilgan, innovatsion salohiyat resurslarining guruhli tarkibi ishlab chiqilgan, innovatsion salohiyatni baholash texnologiyasi tadqiq etilgan. Shuningdek, hududiy iqtisodiy salohiyatni oshirish dinamikasida savdo xizmatlari salmog'ini tarkibiy baholash algortmi taklif etilgan.

Kalit so'zlar: savdo xizmatlari, innovatsion rivojlantirish, innovatsion salohiyat resurslari, innovatsion rivojlantirish tamoyillari tasnifi, innovatsion salohiyatni baholash texnologiyasi, tarkibiy baholash algortmi.

АННОТАЦИЯ

Предоставление торговых услуг является одним из основных источников, оказывающих большое влияние на обеспечение экономической стабильности страны, увеличение объема ВВП, повышение показателей занятости и доходов населения и тем самым улучшение условий жизни. В сложившейся мировой экономической ситуации остается актуальным определение новых подходов к развитию торговой системы, активизация инновационных механизмов развития. В статье представлена классификация принципов инновационного развития сферы услуг торговли, разработан групповой состав ресурсов инновационного потенциала, исследована технология оценки инновационного потенциала. Также предложен алгоритм структурной оценки значимости торговых услуг в динамике роста экономического потенциала региона.

Ключевые слова: торговые услуги, инновационное развитие, ресурсы инновационного потенциала, классификация принципов инновационного развития, технология оценки инновационного потенциала, алгоритм структурной оценки.

ABSTRACT

The provision of trade services is one of the main sources that have a great impact on ensuring the economic stability of the country, increasing the volume of GDP, increasing employment and incomes of the population, and thereby improving living conditions. In the current global economic situation, it remains relevant to determine new approaches to the development of the trading system, and to activate innovative development mechanisms. The article presents a classification of the principles of innovative development of the trade services sector, developed a group composition of the resources of innovative potential, studied the technology for assessing innovative potential. An algorithm for structural assessment of the importance of trade services in the dynamics of the growth of the region's economic potential is also proposed.

Key words: *trade services, innovative development, innovative potential resources, classification of innovative development principles, innovative potential assessment technology, structural assessment algorithm.*

Kirish. Milliy iqtisodiyotning hozirgi rivojlanish bosqichida iqtisodiyot tarmoqlarida innovatsion faoliyatni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Innovatsion faoliyatni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri innovatsion mahsulot va xizmatlarni taklif etish hisoblanadi. Bu yo'nalish ma'lum bir asosiy yo'nalishlarda algoritmik rivojlanishni talab etadi. Bu yerda innovatsion rivojlantirish strategiasining mavjudligi, konsepsiyasining joriy etilganligi, innovatsion jarayonlarning tashkil etilganligi nazarda tutiladi. O'z navbatida innovatsion mahsulot va xizmatlarni taklif etish yo'nalishi innovatsion faoliyatning natijasini belgilab beradi. Innovatsion xizmatlarni taklif etish amaliyotining samaradorligi, xizmatlar bozorini chuqur tadqiq etishning, iqtisodiy-innovatsion faoliyatni tahlil qilishning, modellashtirish, prognozlashtirish jarayonlarining sifatli natijalariga bog'liq bo'ladi. Jumladan, bugungi kunda savdo xizmatlari faoliyatining innovatsion tashkil etilishi, sohada innovatsion xizmatlarning taklif etilishi tarmoqni innovatsion rivojlantirish jarayonining harakatga keluvchi va natija beruvchi fonini ifodalaydi.

Adabiyotlar tahlili. Jahonda bir qator olimlar savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirishni muayyan tamoyillar asosida yuz berishi haqida tadqiqotlar olib borgan. Bu tamoyillar to'g'risida iqtisodchi olimlar A.Albers, M.Omar, I.A.Krasyuk, D.B.Fedyunin va boshqalar maqsadga yo'naltirilganlik, moslashuvchanlik, tejamkorlik, izchillik, yaxlitlik, ta'sirchanlik, tarqaluvchanlik, tarmoqlanuvchanlik, tizimlilik, optimallik xususiyatlari mavjudligini ta'kidlashadi [1, 2, 3]. Tadqiqotchilar R. Lauri, M.N. Omar, M. Auboin, R. Koopman kabi olimlar innovatsion muhitning yuzaga kelishi, mintaqa innovatsion imdjining shakllanishi ushbu asosiy to'rtta guruh

tarkibiga kiruvchi omillar ta'sirida yuz beradi deb hisoblashadi hamda bularga hududdagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni, mintaqaning innovatsion salohiyatini, inson kapitalini, boshqaruv qobiliyatini keltirib o'tishadi [4, 5, 6]. Iqtisodchi olim YE.Karchenko mintaqaning innovatsion salohiyatga egaligi savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirish uchun zaruriy va yetarli imkoniyatlarning darvozasi ekanligini ta'kidlaydi [7]. Iqtisodchi olim S.K.Nguen, Bristol Universiteti professori J.Beach ning ilmiy qarashlarida har qanday ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy, texnik-texnologik, axborot, intellektual, dasturiy resurslar yangilanish qonunlari ta'sirida innovatsion xarakterdagi resurslarga aylanishi mumkinlik g'oyasi ilgari suriladi [8, 9]. Mazkur tarmoq rivojini tadqiq etishda bir qator mamlakatimiz olimlari ham ilmiy izlanishlar olib borishgan hamda qimmatli fikrlarini, tavsiyalarini keltirib o'tishgan [10, 11, 12].

Tadqiqot uslubiyoti. Tadqiqot natijalariga erishishda taqqoslama tahlil, omilli tahlil, ekonometrik modellashtirish, statistic tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Savdo xizmatlarini hududiy jihatdan, daraja jihatdan tadqiq etish alohida usullarni, tamoyillarni, yondoshuvlarni taqoza etadi. Tarmoqning innovatsion rivojlantirish tamoyillarini tadqiq etishda savdo faoliyatining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib yondashish talab etiladi. Bugungi kunda mazkur talab asosida shakllantirilgan tamoyillarga quyidagilarni keltirish mumkin (1-rasm).



1-rasm. Savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirish tamoyillari tasnifi¹


Mintaqaning innovatsion qiyofasi turfa xil ijtimoiy-iqtisodiy omillarning sinergetik ta'siri asosida shakllanadi. Dunyo olimlarining ilmiy xulosalariga ko'ra

¹ Nazariy o'rganishlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

innovatsion muhitning yuzaga kelishi, mintaqa innovatsion imdjining shakllanishi ushbu asosiy to'rtta guruh tarkibiga kiruvchi omillar ta'sirida yuz beradi [13, 14]. Bularga hududdagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni, mintaqaning innovatsion salohiyatini, inson kapitalini, boshqaruv qobiliyatini keltirishadi.

Mintaqada savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirish uchun mavjud shart-sharoitlar tarkibini jahon savdo tashkiloti (WTO) iqtisodchi olimi R.Koupman xalqaro iqtisodiy ekspert jamiyati (ISEE) xulosalariga tayanib hududda iqtisodiyotni raqamlashtirish siyosatining yuritilishi, raqamli texnologiyalarni joriy etish vositalarining ta'minoti, xodimlarning intellekti, raqamli savdo tizimiga moslashuvchan boshqaruv mexanizmining mavjudligi tashkil etishini ta'kidlaydi.

Iqtisodchi olim YE.Karchenko mintaqaning innovatsion salohiyatga egaligi savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirish uchun zaruriy va yetarli imkoniyatlarning darvozasi ekanligini ta'kidlaydi. Bizningcha, mintaqaning innovatsion salohiyati – bu savdo xizmatlarini innovatsion rivolantirishda eng asosiy omil, vosita, manba va ham moddiy, ham abstrakt resurs hisoblanadi. bir qator olimlar, jumladan, xalqaro biznes tadqiqotlari instituti (IIBS) tadqiqotchisi, iqtisodchi olim S.K.Nguen, Bristol Universiteti professori J.Beachning ilmiy qarashlarida har qanday ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy, texnik-texnologik, axborot, intellektual, dasturiy resurslar yangilanish qonunlari ta'sirida innovatsion xarakterdagi resurslarga aylanishi mumkin (2-rasm).




2-rasm. Innovatsion salohiyat resurslarining guruhli tarkibi¹

Savdo xizmatlarini rivojlantirish metodologiyasida mintaqaning innovatsion salohiyatini baholash katta ahamiyatga ega. Innovatsion salohiyatni baholash o'ziga xos uslubiy yondoshuvlariga, baholash vositalariga ega bo'lib, xususan, savdo

¹ Nazariy o'rganishlari asosida muallif tomonidan ishlangan

xizmatlarini innovatsion rivojlantirishda mintaqaning hamda savdo korxonalarining innovatsion salohiyatini baholashda umumiy va farqli jihatlar kuzatiladi.

Metodologik yondoshuv bo'yicha Vena xalqaro iqtisodiy tadqiqotlar instituti professori M.Landesmann asosiy indikatorning sohaviy boshqa ko'rsatkichlarga kuchli bog'liq bo'lishi zaruriy shart ekanligini asoslab beradi [15]. Uning ilmiy yondoshuviga ko'ra mazkur usul zanjirsimon yondoshuvni talab etib, imkon qadar salohiyat ko'rsatkichini kam sonli belgilarga bog'lash kerak, u holda tarkibiy baholash elementlarini keyingi ko'rsatkichlarga bog'lash zaruriyati paydo bo'ladi.



3-rasm. Innovatsion salohiyatni baholash texnologiyasi¹


Savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirish salohiyatini baholashning bir qancha yondoshuvlari va maxsus usullari mavjud bo'lib, hozirgi vaqtda global ommalashgan yondoshuvlarga ekspert va omilli yondoshuv turlarini keltirish mumkin. Rotterdam Erasmus universiteti professori, sotsiolog olim X.Bekker va Moskva davlat universiteti professori, iqtisodchi olim M.Shereshevaning ilmiy asarlarida xududiy innovatsion salohiyatni baholash yondoshuvlari bo'yicha yakuniy mazmundagi ilmiy mulohazalarni uchratish mumkin [16, 17]. Unga ko'ra katta ko'lamdagi hududiy o'rganish obyektni kichik aglomeratsiyalar masshtabida tadqiq etish, innovatsion salohiyatni baholashda deduktiv tamoyilga asoslanish samari ekanligi da'vo qilinadi.

Umumiy jihatlarini korxonalarining mintaqa salohiyatining tarkibiga kiruvchi barcha elementlari tashkil etadi. Aksariyat tadqiqotchilar amaliy xarakterdagi ilmiy

¹ Muallif tomonidan nazariy o'rganishlari asosida tuzilgan

faoliyatida umumiy holda innovatsion salohiyatni baholash tushunchasi bilan cheklanishadi. Tadqiqotimizda nazariy o'rganishlarimiz asosida innovatsion salohiyatni baholash vositalari hamda yondoshuvlari tasnifini umumlashgan holatida tadqiq etdik (3-rasmda keltirilgan).

Mintaqaning iqtisodiy salohiyatini oshirish dinamikasida savdo xizmatlari salmog'ini tarkibiy baholashda uslubiy yondoshuvning mohiyati tarmoqning iqtisodiy salohiyat o'zgarishiga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi, makro darajadagi belgisini (indikatorini) aniqlash va uning o'zgarish tendensiyasiga tayanib savdo xizmatlari salmog'ini baholashdan iborat. Biz bu umumiy metodologik yondoshuv asosida o'ziga xos yondoshuvni taklif etamiz. Unga ko'ra mintaqaning iqtisodiy salohiyatini oshirish dinamikasida savdo xizmatlari salmog'ini tarkibiy baholash quyidagi usul algoritmi (chiziqli) bo'yicha olib boriladi (4-rasm).



4-rasm. Hududiy iqtisodiy salohiyatni oshirish dinamikasida savdo xizmatlari salmog'ini tarkibiy baholash usulining algoritmi¹

Savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirishni tadqiq etishda mintaqaning aholiga savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirish salohiyatini baholash muhim jihat bo'lib, bu yerda baholash yondoshuvi katta xarakter kasb etadi.

Xulosa. Yuqoridagi tadqiqot tahlil va natijalari asosida quyidagi xulasa va takliflar shakllantirildi.

1. Bizningcha mintaqada savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirish

¹ Nazariy o'rganishlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

salohiyatini baholash vositalarini, omillarini, predmetlarini mujassamlashtirgan sferani qurish va har bir sferaosti bloklari bo'yicha baholash modellarini ishlab chiqish zarur.

2. Tadqiqotimizda sferaosti bloklari sifatida mintaqaning raqamli infratuzilmasini, aholining innovatsion xarakterdagi turmush tarzini, elektron tijorat tizimini tanlashni taklif etamiz. O'z navbatida bu bloklar baholash vositalarini, omillarini, predmetlarini saqlaydi.

3. Mintaqada savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirishda barqaror o'sish tendensiyasini aniqlashning soha xususiyatlarini hisobga olgan mezonlarini ishlab chiqish zarur bo'ladi. Bu mezonlarni ishlab chiqishning ijtimoiy, iqtisodiy yondoshuvlari mavjud bo'lib, zamonaviy tadqiqotlarda modellashtirish usulidan muvaffaqiyatli foydalanilayotgan bo'lsada, aksariyat holatlarda statistik, evristik kabi iqtisodiy tahlil usullariga murojaat etilmoqda. Bu usullardan foydalanmaslik kerak degan da'vodan yiroq holda, tadqiqotimizda ekoknometrik yondoshuv asosida ishlab chiqilgan mezonlaridan foydalanish samarali bo'ladi.

4. Ekonometrik nazariyada iqtisodiyot tarmoqlarining ma'lum bir ko'rsatkichlarning hududiy tafovutlari uchun turli yillar kesimida o'sish sur'atini ko'rsatuvchi balans tenglamasini parametrik va tuzilmaviy jihatdan takomillashtirish kerak.

Adabiyotlar

1. Albers A., Ohmer M. et al. Accessibility of the innovative principles to further levels of abstraction in product development. *Procedia Engineering*. № 9 (2011) p. 222–235
2. Красюк И.А. и др. Методологические подходы к инновационному развитию розничной торговли. *Инновации*. № 12 (230), 2017. Стр.-105-112
3. Федюнин Д. В. Методология и методы управления инновациями в розничной торговле: монография/Под общ. ред.С. А. Лочана. М.: КноРус, 2013. 209 с
4. Lauri R. et al. Green factors stimulating the purchase intention of innovative luxury organic beauty products: Implications for sustainable development. *Journal of Environmental Management*. Volume 301, 1, 2022, 113899;
5. Omar M.N. Investigating the influence of big data analytics capabilities and human resource factors in achieving supply chain innovativeness. *Computers & Industrial Engineering*. Volume 168, 06. 2022, 108055
6. Auboin M., Koopman R. Trade and innovation policies: Coexistence and spillovers. *Journal of Policy Modeling*. Volume 43, Issue 4, (2021), Pages 844-872
7. Kharchenko E. et al. Innovative Potential of Russian Regions: Methodological Aspects of Analysis and Development Trends. *Procedia Economics and Finance* 14 (2014) 313 – 319

8. Nguyen S.K. et al. Innovative strategies and corporate profitability: the positive resources dependence from political network. *Heliyon* 6 (2020) e03788 / Электрон манба: <https://doi.org/10.1016/j.heliyon.2020.e03788>
9. Beath J. et al. Sequential Product Innovation and Industry Evolution. *The Economic Journal*, Volume 97, Issue Supplement, 1 December 1987, Pages 32–43// *Elektron manba*: <https://doi.org/10.2307/3038228>
10. Juraev , F. D. . (2021). Problems Of Informatization Of Management Of Agricultural Industry And Modeling Of Agriconomic System In A Market Economy. *The American Journal of Applied Sciences*, 3(02), 49–54. <https://doi.org/10.37547/tajas/Volume03Issue02-04>
11. Rakhimov, A. N., & Jo‘rayev, F. D. (2022). A Systematic Approach To The Methodology Of Agricultural Development And The Strategy Of Econometric Modeling. *resmilitaris*, 12(4), 2164-2174. - <https://resmilitaris.net/menu-script/index.php/resmilitaris/article/view/2060>
12. Жураев, Ф. Д. (2021). Econometric modeling of the development and management of agricultural production based on cluster analysis (on the example of the Kashkadarya region). *Экономика и предпринимательство*,(ISSN 1999-2300), 15(8), 133
13. Jo‘rayev, F. D., & Aralov, G‘. M. (2023). Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonini ekonometrik modellashtirish zaruriyatining asosiy jihatlari. *Educational research in universal sciences*, 2(2), 36-43. - <https://zenodo.org/record/7702123#.ZCF0VHZBxPY>
14. Jo‘rayev, Farrukh Do‘stmirzayevich and Ochilov, Murodjon Ashurqulovich (2023) "ALGORITHMS FOR MULTI-FACTORY POLYNOMIAL MODELING OF TECHNOLOGICAL PROCESSES," *Chemical Technology, Control and Management: Vol. 2023: Iss. 1, Article 8*.
15. Landesmann M. Luigi Pasinetti on growth and structural change in international economic relations. *Structural Change and Economic Dynamics*. Available online 8 (2022) // <https://doi.org/10.1016/j.strueco.2022.08.003>
16. Social impact assessment; method and experience in Europe, North America, and the developing world, Henk A. Becker, UCL Press, London, 1997, xii + 260 pp.
17. Шерешева М. и др. Оценка потенциала развития малых городов и направлений его эффективного использования. Государственное управление. Электронный вестник Выпуск № 65.12.2017 .с.162-174 // Электрон манба: <https://cyberleninka.ru/article/n/otsenka-potentsiala-razvitiya-malyh-gorodov-i-napravleniy-ego-effektivnogo-ispolzovaniya>
18. Махматкулов, Г. (2022). АҲОЛИГА САВДО ХИЗМАТЛАРИНИ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНТИРИШ САЛОҲИЯТИНИ БАҲОЛАШДА

ТРЕНД МОДЕЛЛАРИНИ ТАНЛАШ МЕЗОНЛАРИ (ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА). Экономика и образование, 23(4), 381-386.

19. Махматкулов, Г. (2022). Савдо хизматларини инновацион ривожлантиришнинг ўзига хос хусусиятлари ва эконометрик моделлаштириш зарурияти. Хоразм маъмун академияси ахборотномаси, 2022 12/2., 123-130 б.

20. Махматкулов, Г. (2020). Савдо хизматлари кўрсатишнинг таҳлили ва кўрсаткичлари тизимини такомиллаштириш йўллари. Халқаро илмий-амалий анжуман материллари. 2020, 650-654 б.

21. Rakhimov, A. N., Makhmatkulov, G. K., & Rakhimov, A. M. (2021). Construction of econometric models of development of services for the population in the region and forecasting them. The American Journal of Applied sciences, 3(02), 21-48.

22. Rakhimov, A. N., Makhmatkulov, G. K., & Rakhimov, A. M. Construction Of Econometric Models Of Development Of Services For The Population In The Region And Forecasting Them.

23. JO'RAYEV, F. D. "ECONOMETRIC MODELING OF THE DEVELOPMENT AND MANAGEMENT OF AGRICULTURAL PRODUCTION BASED ON CLUSTER ANALYSIS (ON THE EXAMPLE OF THE584 KASHKADARYA REGION)." ЭКОНОМИКА 8: 584-590.

24. Жўраев, Ф. Д., & Аралов, Г. М. (2023). Қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқариш жараёнини эконометрик моделлаштириш заруриятининг асосий жиҳатлари. Educational research in universal sciences, 2(2), 36-43.

25. Максматкулов Г.К., Маликова Н.Т. (2019). СТОХАСТИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СИСТЕМЫ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА. European Science Review , 1 (1-2), 152-156.

26. Махматқулов Г'Х Savdo xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishida raqamlashtirishning ahamiyati "Biznes-Ekspert" jurnali 2021 yil 5 (161)-сон 36-41б.

27. Махматқулов Г'Х Raqamli texnologiyalar asosida savdo xizmatlari sifatini oshirish «Innovatsion iqtisodiyot: muammo,tahlil va rivojlanish istiqbollari» qarshi 2021 270-273 б.